

QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI

Navotova Dilnoza Ibrogimovna
o'qituvchi,
Qarshi davlat universiteti

Rayhona Toshtemirova Norboy qizi
2-kurs, talaba
Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya: Tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida Qashqadaryo viloyati xo'jaligi tarmoqlari, uning iqtisodiy rivojlanish darajasi murakkab yo'lni bosib o'tgan. Tarixiy manbalarda berilgan ma'lumotlarga ko'ra, Qashqadaryo o'tmishda mamlakatdagi aholi xo'jalik faoliyati g'oyat qizg'in kechgan eng qadimiy o'lkalardan biri bo'lgan. Mamlakatimizning g'arb bilan sharq o'rtasidagi iqtisodiy taraqqiyot uchun qulay bo'lgan geografik o'rni, sahiy tabiati, boy va rang-barang tabiat resurslari, mehnat va mardona xalqi umumbashariy taraqqiyotga munosib hissa qo'shaolgan hudud hisoblanadi. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati iqtisodiyoti haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiyot, sanoat uzeli, mehnat resurslari, migratsiya, aholi bandligi, infratuzilma, ijtimoiy soha, diversifikatsiya, sanoat ishlab chiqarish, xizmat doirasi.

АНАЛИЗ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация: На разных этапах исторического развития отрасли экономики Кашкадарьинской области, ее уровень экономического развития прошли сложный путь. По сведениям, приведенным в исторических источниках, Кашкадарья была одним из древнейших регионов страны, где в прошлом экономическая деятельность населения была очень интенсивной. Выгодное географическое положение нашей страны для экономического развития между Западом и Востоком, ее щедрая природа, богатые и разнообразные природные ресурсы, трудолюбивый и мужественный народ считаются регионом, внесшим достойный вклад в мировое развитие. В данной статье представлена информация об экономике Кашкадарьинской области.

Ключевые слова: Экономика, промышленный узел, трудовые ресурсы, миграция, занятость населения, инфраструктура, социальная сфера, диверсификация, промышленное производство, сфера услуг.

ANALYSIS OF ECONOMIC INDICATORS OF KASHKADARYA REGION

Abstract: At different stages of the historical development of the economic sector of the Kashkadarya region, its level of economic development has passed a difficult path. According to information given in historical sources, Kashkadarya was one of the oldest regions of the country, where in the past the economic activity of the population was very intense. Our country's favorable geographical position for economic development between the West and the East, its generous nature, rich and varied natural resources, hardworking and courageous people are considered a region that has made a worthy contribution to world development. This article provides information about the economy of the Kashkadarya region.

Key words: Economy, industrial hub, labor resources, migration, employment, infrastructure, social sphere, diversification, industrial production, service sector.

Qashqadaryo – mamlakat neft va gaz sanoatining tayanchi hisoblanadi. Qashqadaryo viloyatida 150 ga yaqin sanoat korxonasi faoliyat yuritmoqda. Ularning asosiy qismi neft va gaz, paxta tozalash, binokorlik, yengil hamda oziq-ovqat sanoatiga ixtisoslashgan.

Eng yirik korxonalari: “Muborakneftgaz” unitar korxonasi, Sho'rtan gaz unitar korxonasi, Muborak gazni qayta ishlash zavodi, Sho'rtan gaz kimyo majmuasi, Qarshi, Koson yog‘ ekstraksiya, Shahrisabz konserva zavodlari, Shahrisabz pillakashlik, Qarshi tikuvchilik fabrikalari, Qashqadaryo marmar aksiyadorlik jamiyati va boshqalar 49 qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatadi, shulardan: O'zbekiston – Turkiya "Kashteks" to'qimachilik, "Oqsaroy to'qimachilik LTD" qo'shma korxonalari ishlamoqda.

Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi — O‘zbekistondagi eng yirik gaz sanoati korxonalaridan biri. "O‘zbekneftgaz" milliy xolding kompaniyasi tarkibiga kiruvchi unitar sho‘ba korxonalar. Qashqadaryo viloyatining G‘uzor tumanidagi Sho‘rtan shaharchasida joylashgan bo‘lib, 150 ga dan ortiq maydonni egallaydi.

Mahalliy konlardan olinadigan gazni qayta ishlab, organik sintez, polietilen, yoqilg‘i gazi, suyultirilgan gaz, gaz kondensati, donador oltingugurt, polietilen tagliklar, polietilen plyonkalar ishlab chiqaradi. Qarshi cho'lining janubi g'arbiy qismida vodorod sulfatidan gaz ajratib oladigan ulkan gaz sanoati markazi joylashgan.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi Qashqadaryo filiali tomonidan viloyatning 2022 yil yanvar-dekabr oylaridagi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Viloyatda yaratilgan YaHMning Respublika yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 5,6 % bo‘lgan holda Toshkent shahri, Toshkent, Navoiy, Samarqand, Farg‘ona, Andijon viloyatlaridan keyingi 7-o‘rinni egallagan. YaHM da kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 69,9%ni tashkil qilgan.

Viloyatda 22 814,7 mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 10,5 foiz (o‘sish ko‘rsatkichi bo‘yicha

Respublika hududlari orasida 3-o‘rin) ga oshgan. Viloyatda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining respublika sanoatidagi ulushi 4,1 foizni va hududlar orasida 8-o‘rinni egallangan. Shuningdek, viloyat sanoati tarkibida tog‘-kon sanoatining ulushi – 7,5 %, ishlab chiqariladigan sanoat - 68,2%, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sanoati - 23,8 %, suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish sanoati - 0,5 %ni tashkil qilgan. Jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari hajmi 1 376,7 ming so‘m (Respublika hududlari orasida 12-o‘rin) bo‘lgan holda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 102,5 foizga oshgan.

Viloyatda 4 763,1 mlrd so‘mlik (2021 yilning mos davriga nisbatan 9,0%) iste‘mol tovarlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, respublikadagi ulushi 2,4 foizni tashkil qilgan holda hududlar orasida 11-o‘rinni egallagan. Tahlil qilinayotgan davr mobaynida ishlab chiqarilgan oziq-ovqat tovarlari hajmi 2878,6 mlrd so‘m (o‘sish ko‘rsatkichi 108,3%), nooziq-ovqat tovarlari 1884,5 mlrd so‘mni (110,2 %) tashkil qilgan.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 33 384,6 mlrd so‘mlik mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ga oshgan. Respublika qishloq xo‘jaligida viloyatning ulushi 9,2 % bo‘lgan holda, hududlar orasida 5-o‘rinni egallagan. Jon boshiga to‘g‘ri keluvchi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 9 689,4 ming so‘mni tashkil qilgan.

Xizmat ko‘rsatish sohasida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 15 945,8 mlrd so‘m bo‘lgan holda, 114,1 % ga oshgan. Xizmatlar hajmining respublika ko‘rsatkichidagi ulushi 4,5 % bo‘lib, hududlar orasida 7-o‘rinni egallagan. Jon boshiga to‘g‘ri keladigan xizmatlar hajmi esa 4 628 ming so‘mni tashkil qilgan.

Chakana savdo hajmi 20 504,8 mlrd. so‘m (112,5%), respublikadagi ulushi 6,4 % ni bo‘lgan holda, hududlar orasida 6-o‘rinni egallagan. Jon boshiga to‘g‘ri keluvchi chakana savda hajmi 5 951,2 ming so‘m (hududlar orasida 12-o‘rin) ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 110,1 foizga oshgan.

Qurilish ishlari hajmi 7 831,1 mlrd. soʻmni (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 105,8 %), respublikadagi ulushi 6,0%ni tashkil etib, hududlar orasida 6-oʻrinni egallagan.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 16 181,5 mlrd soʻmni (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 80,8 %), respublikadagi ulushi 6,1% (hududlar orasida 6-oʻrin)ni tashkil qilgan. Jon boshiga toʻgʻri keladigan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 4 696,4 ming soʻmni tashkil qilgan.

Tashqi savdo aylanmasi hajmi 547,5 mln AQSh dollarini tashkil qilgan holda, oʻtgan yilga nisbatan 96,8 foizni tashkil etgan. Viloyat tashqi savdo aylanmasining respublika jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 1,1% boʻlib, hududlar orasida 13-oʻrinni egallagan. Tashqi savdo aylanmasi tarkibida eksport – 303,4 mln AQSh dollari (112,3% oʻsish) ni, import – 244,1 mln AQSh dollari (82,6%) ga teng boʻlgan. 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda 8 551 ta (oʻtgan yilga nisbatan 90,4%) yangi kichik biznes subʼyektlari tashkil etilgan.

2024- yilning yanvar-fevral oylarida Qashqadaryo viloyatida jami 852 ta yangi korxonalar (fermer va dehqon xoʻjaliklarisiz) tashkil etilib, ular iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha quyidagicha taqsimlangan:

- ✓ savdo sohasida – 276 ta
- ✓ qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi sohasida – 175 ta
- ✓ sanoat sohasida – 125 ta
- ✓ yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar sohasida – 64 ta
- ✓ qurilish sohasida – 38 ta
- ✓ axborot va aloqa sohasida – 31 ta
- ✓ tashish va saqlash sohasida – 22 ta
- ✓ sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida – 14 ta
- ✓ boshqa sohalarda – 107 tani tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyatining ma'muriy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi Qarshi shahri hisoblanadi. Qarshi Janubiy O'zbekistonning yirik shahri bo'lib, 1926 yilda tashkil topgan. Shahar maydoni 75,51 km² ni tashkil qiladi. Aholisi 295,6 ming kishi, aholining soni jihatidan respublika shaharlari orasida 8-o'rindadir. Shaharning iqtisodiy geografik o'rni juda qulay. Qarshi shahri viloyatning va o'zlashtirilgan Qarshi dashtining deyarli markazida asosiy temir va avtomobil yo'llari kesishgan yerda, qadimdan dehqonchilik intensiv rivojlangan voqa bilan keng yaylovlar Qarshi-Zarafshon, Surxon-Sherobod vodiysi oralig'ida va qulay sanoat uzeli joylashgan. Ayni vaqtda respublika miqyosidagi ishlab chiqarish kuchlari tez rivojlanayotgan hududda o'rnashgan. Bugungi Qarshi ko'p funksiyali shahar hisoblanadi. Shahardagi sanoat tarmoqlari tarkibida yengil sanoat va oziq-ovqat sanoati yetakchi o'rin tutadi. Paxta tozalash zavodi, yog'-sut zavodi, tikuv fabrikasi, qurilish materiallari, metallarga ishlov beruvchi kombinatlar viloyat iqtisodiyotining rivojiga munosib ulush qo'shib kelmoqda. Hozirgi vaqtda Qarshi shahrida 20 dan ortiq qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatadi. "Mevalar kamalagi" O'zbekiston-Britaniya, "Qarshiyog'" O'zbekiston-Singapur qo'shma korxonalar mahalliy xomashyoni qayta ishlash yo'li bilan mahsulot ishlab chiqaradi. Qarshi va uning tevaragida paxta, ipak, yog' zavodlari, metal ishlash korxonalar, tikuvchilik fabrikalari, binokorlik materiallari kombinati kabi korxonalar qurilib, Qarshi sanoat tuguniga aylandi. Cho'lni o'zlashtirishda Qarshi tayanch manzil hisoblanadi. Temiryo'l va avtomobil yo'llari Qarshida birlashadi. Bu hol Nishon, Talimarjon, Koson kabi shahar va shaharchalarning ishlab chiqarish aloqalarini rivojlantiradi. Shaharda Qarshi davlat universiteti, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Qarshi filiali va boshqa ta'lim muassasalari bor.

Qashqadaryo viloyati ishlab chiqarish kuchlarini yanada rivojlantirish uchun katta moddiy texnika baza, mineral, yer hamda mehnat resurslariga ega. Shu boisdan, Qashqadaryo viloyati O'zbekiston xalq xo'jaligi majmuasi tarkibida muhim iqtisodiy mavqega ega. Mavjud imkoniyatlardan foydalanish kelgusida bu

yerda respublika ahamiyatiga ega bo'lgan yirik dehqonchilik sanoati majmuasini vujudga keltirish imkonini beradi. Viloyatning ishlab chiqarish sohasidagi ixtisoslashuvini belgilovchi uch tarmoq majmuasi, paxta-g'allachilik, mevasabzavotchilik va neft-gaz sanoati rivojlantiriladi. Kelajakda viloyatdagi tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlar hisobga olingan holda sanoat ancha rivojlantiriladi, sanoat korxonalarini oqilona joylashtirish, mehnat resurslaridan to'laroq foydalanish, xalq xo'jaligini malakali kadrlar bilan ta'minlash kabi vazifalar hal etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Навотова Д.И. Ер ресурсларидан қишлоқ хўжалигида фойдаланишни тадқиқ қилишнинг назарий-услубий жиҳатлари// Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS). Volume 2 | issue 1 | Tashkent,Uzbekistan. 2022. – P. 321-327
2. Навотова Д. И., Хайдарова Ф. Географические особенности использования зарубежного опыта использования земельных ресурсов в хозяйственных хозяйствах //Экономика и социум. – 2022. – №. 4-3 (95). – С. 198-202.
3. Навотова Д. И. Қашқадарё вилояти қишлоқ хўжалиги географияси ва уни карталаштиришнинг баъзи масалалари //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 721-725.
4. Murodova D.S. Economic geographical factors affecting the formation of city addresses. - Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. November, 2022. – P. 29-34.
5. Navotova D.I. Internal differences in the use of land resources in the agriculture of Kashkadarya region// Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Volume 12. Belgiya. 2023. - P.100-104
6. Qarshi shahar pasporti. Qarshi, 2022.
7. Qurbonov P.R. Janubiy O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari. Monografiya. Toshkent "Mumtoz so'z", 2019.
8. <https://review.uz/uz/post/qashqadaryo-viloyatining-2022-yil-yanvar-dekabr-oylaridagi-asosiy-makroiqtisodiy-ko'rsatkichlari>
9. Sul'tonov Shuxrat Adxamovich, Sul'tonov Nekro'z Aliqulzoda. Meteoritlar hosil qilgan kraterlar va ular natijasida foydali qazilmalarni hosil bo'lishiga doir mulohazalar. Лучшие интеллектуальные исследования: Vol. 16 No. 1 (2024). 113-123-betlar.
10. Sul'tonov Shuxrat Adxamovich. Neft - gaz hosil bo'lishidagi cho'kindi jinslar klassifikatsiyasi xossalari o'rganish va tahlil qilish. Лучшие интеллектуальные исследования. Vol. 16 No. 1 (2024). 124-130-betlar.
11. Султанов.Ш.А. (2020). Петрохимические и геохимические особенности дайковых серии северной части Чакылкалянского мегаблока (южный Узбекистан). *ТЕСНика*, (3), С 24-33.
12. Sul'tonov Shuxrat Adxamovich, Sul'tonov Nekro'z Aliqulzoda, Yer tarixida kechgan metallogenik bosqich va davrlar haqida ayrim mulohazalar. Лучшие интеллектуальные исследования: Vol. 16 No. 1 (2024). 105-112-betlar.
13. <https://qashstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo'mita-yangiliklar>